

NAZAR ESONQULNING “SHARPA” HIKOYASI TAHLILI.

Qudratillayeva Donoxon

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: *Zamonaviy o‘zbek nasrining shakllanishida psixologik tasvirning chuqurlashuvi va insonning ichki olamini badiiy tadqiq qilish tendensiyasi alohida o‘rin tutadi. O‘tgan asr oxiridan boshlab ushbu yo‘nalishning eng faol namoyandalaridan biri — Nazar Eshonquldir. Uning “Sharpa” hikoyasi o‘zbek psixologik modernist nasrining yorqin namunasi bo‘lib, unda inson ruhiyati, vijdon bilan to‘qnashuv, o‘tmishning ong ostida qayta namoyon bo‘lishi kabi murakkab jarayonlar badiiy ifoda etilgan.*

Kalit so‘zlar: *syujet, qahramon, ruhiy holat, hissiy qarama-qarshilik, hayoliy kechinmalar, insonning ichki holati, qo‘rquv, zo‘riqish, umidsizlik.*

Аннотация: *В формировании современной узбекской прозы особое место занимают углубление психологического образа и художественное исследование внутреннего мира человека. Одним из наиболее активных представителей этого направления с конца прошлого века является Назар Эшанкуль. Его рассказ «Шарпа» является ярким образцом узбекской психологической модернистской прозы, в которой художественно выражены такие сложные процессы, как психика человека, конфликт с совестью, возрождение прошлого в подсознании.*

Ключевые слова: *сюжет, персонаж, душевное состояние, эмоциональный конфликт, фантастические переживания, внутреннее состояние человека, страх, напряжение, отчаяние.*

Abstract: *In the formation of modern Uzbek prose, the deepening of the psychological image and the artistic research of the inner world of a person have a special place. One of the most active representatives of this trend since the end of the last century is Nazar Eshankul. His story "Sharpa" is a vivid example of Uzbek psychological modernist prose, in which complex processes such as the human psyche, the conflict with conscience, and the reappearance of the past in the subconscious are artistically expressed.*

Key words: *plot, character, state of mind, emotional conflict, fantasy experiences, human inner state, fear, tension, despair.*

Kirish. Asar tashqi syujetdan ko‘ra qahramonning ichki kechinmalarini markazga qo‘yishi bilan ahamiyatlidir. Bu unsurlar hikoyani adabiyotshunoslik tadqiqoti uchun qulay obyektga aylantiradi. “Sharpa” hikoyasida muallif inson ruhiy olamining eng nozik qatlamlarini yoritishga intiladi. Qahramonning sharpa bilan duch kelishi, uni ko‘rib turishi va vahima ostida qolishi aynan shu holatning badiiy ifodasidir. Asar davomida qahramon real makonda harakat qilsa-da, u har bir qadamida o‘zining ruhiy iztiroblari bilan to‘qnashadi. Hikoyaning psixologik kuchi ham ana shu “ikki olamning” — tashqi makon va ichki ongning to‘qnashuvidan hosil bo‘ladi.

Adabiyot tahlili va metodologiya: Mazkur asar zamonaviy adabiyotda psixologik-falsafiy hikoya janriga mansub bo'lib, unda insonning ichki ruhiy iztiroblari, qo'rquv va vahimasi ramziy obraz — sharpa orqali tasvirlangan. Asarning hikoya janrida yozilganini undagi voqealarning bir makonda kechishi, qahramonlar sonining kamligi va syujetning ixchamligi orqali bilish mumkin. Jumladan, asarda: “Yolg'iz qolding deguncha u... xonada vajohat bilan keza boshlardi”¹¹, — deyilishi voqealar markazi bitta shaxs va bitta makon, joy bilan bog'langanini, undagi g'oya faqat bir shaxs bilan bo'lganini ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar: Asarda tasvirlangan sharpa obrazi real mavjudot emas, balki qahramonning ichki qo'rquvi va ruhiy parokandaligining timsolidir. Buni “Sharpa faqat yolg'iz qolsang paydo bo'lar, odamlar kelganda esa qaygadir berkinib olar edi”¹² degan jumladan ham anglash mumkin. Bu holat sharpa tashqi mavjudot emas, balki qahramon ongida yashovchi vahm ekanini isbotlaydi. Asarning g'oyaviy cho'qqisi(kulminatsiyasi) do'st obrazi orqali ochiladi. Do'stning: “Bu uyda sening o'zingdan boshqa hech qanday sharpa yo'q. Sharpa sensan!”¹³ — degan gapi hikoyaning butun mazmunini ochib beradi, umdagi mohiyatini o'quvchi anglashiga yordam beradi. Ushbu jumla orqali muallif inson o'z qo'rquvining manbai ko'pincha o'zi ekanini ta'kidlaydi.

Asarda ichki konflikt ustuvor bo'lib, u qahramonning ruhiy holati orqali ochiladi. Qahramonning: “Go'yo qurib-qovjirashga yuz tutgan daraxtdek kunma-kun ozib-to'zib borardim”¹⁴, — deya tasvirlanishi ruhiy iztirobning jismoniy holatga ham ta'sir qilganini ko'rsatadi. Bu psixologik hikoyalarga xos belgi hisoblanadi. Qushlar obrazi asarda umid va erkinlik ramzi sifatida berilgan. Qahramonning: “Xonamni qushlar suratiga to'ldirib yubordim, ular erkin va ozod edilar”¹⁵, — degan tasviri ijod orqali ruhiy qutulish istagini ifodalaydi. Biroq bu umid uzoqqa cho'zilmaydi. Ulkan qushning halok bo'lishi “Qanotlari yulib olingan qush jonsiz yotar edi”¹⁶ jumlasini orqali fojiali va qo'rquv aralash tarzda ifodalanadi.

Quyosh va osmon obrazlari esa asarda ongning yoritilishi va haqiqatni anglash ramzi sifatida xizmat qiladi. “Xonam shiftiga moviy osmon va porlab turgan quyoshning suratini chizdim”¹⁷ degan jumla qahramonning zulmatdan qutulishga bo'lgan urinishini ko'rsatadi. Ammo sharpa quyoshni qora rangga bo'yab qo'yadi: “Sharpa quyoshni qopqora bo'yoqqa bo'yab qo'ygan edi”¹⁸. Bu holat inson ruhiy kurashda bir martalik g'alaba bilan to'liq najot topa olmasligini anglatadi.

Asar yakunida qahramon va sharpa qarama-qarshiligi hal bo'lmaydi. “Sharpa va sen, bir-biringni umr tugaguncha ta'qib qilib yasharding”¹⁹ jumlasini asarning ochiq va fojiaiy yakunini belgilaydi. Bu yakun orqali muallif inson o'z ichki zulmati bilan bir umr

¹¹ Hikoyaga xos makon birligi.

¹² Sharpa ramziy obraz ekanining dalili

¹³ Asarning g'oyaviy kalit jumlasini

¹⁴ Ruhiy inqirozning badiiy ifodasi.

¹⁵ Qush — erkinlik va umid ramzi

¹⁶ Umidning sindirilishi.

¹⁷ Ongni yoritish ramzi

¹⁸ Zulmatning qaytishi — falsafiy g'oya.

¹⁹ Ochiq va fojiaiy yakun.

kurashishga mahkum ekanini falsafiy tarzda ifodalaydi. Shundan keyin “Sharpa faqat uyda emas, ishda ham, yo‘lda ham, qayerda bo‘lma, meni ta‘qib qilardi”.²⁰ Bu jumla sharpa obrazining makon bilan chegaralanmaganini ko‘rsatadi. Demak, sharpa qahramon ongidan tashqariga ham chiqib ketgan bo‘lib, ruhiy vahima doimiy holatga aylanganini anglatadi. “Har lahza qandaydir tajovuzkor nigoh tikilib turganday tuyular edi”.²¹ Ushbu jumlada qahramonning doimiy kuzatuv ostida ekanlik hissi ifodalanadi. Bu holat psixologiyada xavotir va paranoik holatlarga xos belgidir. Keyin esa asardagi “men” o‘ziga “Men o‘zimni baland devorlar bilan o‘rab tashlangan qo‘rg‘ondek his qilardim”²². Bu badiiy tashbeh qahramonning ruhiyatini qamalda ekanini ko‘rsatadi. U tashqi tomondan erkin bo‘lsa-da, ammo ichki jihatdan mutlaq asirlik, tutqinlik holatidadir.

“Sharpa endi xonamda sezdimay o‘z saltanatini o‘rnatgan edi”²³.

Mazkur jumla sharpa ustunlikka erishganini bildiradi. Bu qahramon ongida qo‘rquv va vahima hukmron bo‘lib olganini ramziy tarzda ifodalaydi. Umuman bu sharpa aqlini o‘g‘irlab olgan edi. “Barcha umidlarimni sharpa vahmi o‘g‘irlab olgandi”²⁴. Bu jumla qahramonning umidsizlik chegarasiga yetganini ko‘rsatadi. Umidning yo‘qolishi esa ruhiy sindirilishning eng og‘ir bosqichi hisoblanadi. “Sharpa zulmatning o‘zi kabi g‘imirlar, go‘yo zulmatdan yasalgan edi”²⁵.

Bu tasvir sharpa va zulmatni birlashtiradi. Zulmat bu yerda ong qorong‘iligi, ma‘naviy bo‘shliq, har taraflama qo‘rquv va ruhiy halokatining ramzidir.

Xulosa: Mazkur asar **psixologik-falsafiy hikoya** bo‘lib, unda insonning ichki qo‘rquvlari, yolg‘izlik va ruhiy inqirozi chuqur ramziy obrazlar orqali tasvirlangan. Sharpa — inson ongida yashovchi vahm timsoli bo‘lib, undan qochish emas, balki uni anglash va nazorat qilish zarurligi asarning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Muallif o‘quvchini tayyor xulosaga yetaklamaydi, balki uni o‘z ichki “sharpa”si haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent.: Mumtoz so‘z, 2010.–132 b.
2. To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: 2002
3. "Nazar Eshonqul". 2024-yil 29-fevralda asl nusxadan arxivlangan.

²⁰ Ushbu jumla sharpa obrazining faqat jismoniy makon bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi

²¹ ruhiy beqarorlik va xavotir holatining kuchayganidan dalolat beradi

²² Qo‘rg‘on tashbehi

²³ Bu jumla sharpa obrazining ustunlikka erishganini ramziy tarzda ifodalaydi.

²⁴ qahramon ongida qo‘rquv va vahimaning hukmron kuchga aylanganini bildiradi.

²⁵ Bu tasvir sharpa va zulmatni bir butun holatda beradi.